



## RANG BILDIRUVCHI LEKSEMALARNING SEMANTIKASI

Israilova Saodat Turapovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU dotsent, PhD

israilovasaodat64@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20797960>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 20-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 22-iyun 2026 yil

### KEY WORDS

*kontekst, belgi-xususiyat, rang, pragmatik, pragmatik ma'no, mental xususiyatlar, matn, lingvokulturologiya, ko'k, diskurs.*

### ABSTRACT

*Rang bildiruvchi leksemalarning pragmatik jihatdan tadqiq etilishi haligacha tilshunoslikda amalga oshirilmagan. Rang komponentli birliklarning mental tadqiqatlari esa qisman o'rganilgan, xolos. Rang bildiruvchi leksemalarning pragmatik xususiyatlarini ochib berish va uni matn hamda diskursda ko'rsata olish, ulardagi pragmatik, mental mazmun qachalik darajada ifodalangan va buni o'quvchi qay darajada tushunmoqda, mana bularni ochib berish dolzarb masaladir.*

Mentalitetimizda ham rang bilan bevosita aloqador haqiqatlar tasviri muhim o'rin tutadi. Bu tasodifiy hodisa emas, albata. Chunki Odam ato tug'ilib, ko'z ochgan dunyo rangli dunyodir. Shuning uchun rang insonga alohida taassurot bag'ishlaydi. Zero, Qur'oni Karimning ham bir necha oyatlarida dunyoning barcha yaratilgani turli-tuman ranglarda yaratilganligi aytiladi.

XIX asrdan boshlab, til va madaniyat muammosi borliqning inson ongida aks etishi va tafakkurning antroposentrik prinsipiga tayanuvchi hodisa sifatida ko'plab soha mutaxassislari — faylasuflar, tilshunolar va madaniyatshunolar diqqat markazida bo'ldi. Insoniyat tarixida ranglarning turli ramziy ma'nolari bo'lib, ular ma'lum jamiyat guruhlarining etnik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotidagi u yoki bu haqiqatlarni aks ettirgan.

Sifat so'z turkumini va uning ichiga kiruvchi belgi bildiruvchi so'zlarni pragmatik jihatdan tahlil qilish hamda o'rganish o'zbek tilida deyarli amalga oshirilmagan. Ammo pragmatik mazmunni tushunish va tahlil qila olish ham o'quvchidan zakiylikni talab qiladi. Pragmatik nuqtayi nazaridan e'tirof etadigan bo'lsak, qachon, qayerda, kimga, nimani, qanday gapirishni o'quvchi bilishi va yaxshi anglashi lozim.

Lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, bu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy-psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro'yobga chiqishini va shu asnda til tizimi rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Pragmatika uchun inson belgidan nima uchun (qanday maqsadda) foydalanadi va bu qanday (qay yo'sinda) bajariladi kabi masalalar muhim bo'lsa, unda beixtiyor belgilarning o'zaro birikib, lisoniy struktura tuzishi (sintaksis) hamda ushbu belgilar tuzilmasi ulardan foydalanuvchilar xohishidagi

ma'noni ifodalash mumkinligi (semantika) haqidagi savollar ham pragmatik tahlil qamroviga o'ta boshlaydi.

“Pragmatik mazmumli gaplar bir yoki bir necha shaxslarga, odamlar guruhiga, ijtimoiy sinflarga, ma'lum jamoatchilik tashkilotlariga oid bo'lishi talab qilinadi”. Umuman, lisoniy belgi sifatida qo'llaniladigan nutqiy tuzilmalarning mazmunan to'liq bo'lishi masalasi uzoq paytdan buyon muhokama qilib kelinmoqda. Bu borada N. Chomskiyning ilk ishlarida keltirilgan “Rangsiz yashil g'oyalar darg'azab uxlashmoqda” tuzilmasini grammatik jihatdan to'g'ri ekanligini (yoki emasligini) tasdiqlash uchun qancha miqdorda siyox va qog'oz sarflanganini eslaylik. Unda “Qiziqarli yangi g'oyalar onda-sonda tug'iladi” tuzilmasi haqida bildirilgan fikrlarni ham unutmaslik kerak. Faylasuf, mantiqshunos P. Siffning fikricha, bunday tuzilmalar soxta bo'lmasa ham mazmunga ega emas. Yana bir mantiqshunos X. Karri ularni “agramatik” (grammatik hodisalarga mos kelmaydi) deb hisoblaydi.

Nutqiy tuzilmalarning mazmundorligi, grammatik qoidalarga binoan tuzilganligi haqida bosh qotirayotgan mantiqshunos va faylasuflar asosiy e'tiborni ushbu tuzilmalarning nutqiy faoliyatida qo'llanishiga ahamiyat beradilar. Bunda tadqiqotchining lisoniy tajribasi aniqlovchi mezonni belgilaydi. Masalan, “Oltin to'rtburchak” gapining mazmunan soxta ekanligini aniqlashda G. Klaus o'z ijtimoiy tajribasiga, hayotda to'plagan bilimiga tayangan bo'lsa, uning grammatik jihatdan to'g'ri ekanligini bilish esa ko'proq ona tili (boshqalar uchun bu xorijiy til bo'lishi mumkin) grammatik qoidalarini qay darajada o'zlashtirganligini bilan bog'liqdir. Pragmatik tahlilning ahamiyati ham mana shunda ko'rinadi.

Rang bildiruvchi leksemalarning pragmatik xususiyatlarini ochib berish va uni matn hamda diskursda ko'rsata olish, ulardagi pragmatik mazmun qachalik darajada ifodalangan va buni o'quvchi qay darajada tushunmoqda, mana bularni ochib berish dolzarb masaladir.

Rang bildiruvchi leksemalar o'zining semantikasi, stilistikasi, lingvokulturologiyasidan tashqari pragmatikasining go'zalligi va ma'no chuqurligi bilan ham ajralib turadi. Aynan matnda bu holatlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Dastavval, rang-tus sifatlari orasida badiiy ijodda eng faol leksemalardan bo'lmish, **oq** va **qora** sifat leksemalari xususida to'xtalmoqchimiz. E'tibor beradigan bo'lsak, ko'pchilik “qora” deyilganda “oq” ni tilga olishadi. Bir-biriga qiyosan ishlatiladigan bu ranglar xuddiki yaxshilik va yomonlik obrazlarida jonlanadi. Xalqimizning “**Oyning o'n beshi qora bo'lsa, o'n beshi oq**”, “**ichi qora**”, “**yuzi qora**”, “**ko'ngli oq**” kabi maqol va frazalarda ham buni ko'rish mumkin.

-Aybim “qora” bo'lganimmi? Nahotki to'rtta bola tug'ib ham shu gapni eshitsam?

- Ko'p gapirma( So'zlashuv nutqidani)

Bu dialogda “qora” leksemasi qo'llangan. Lekin e'tibor bersak, “qora” bu yerda rang ma'nosida emas, balki butunlay boshqa ma'noda keladi. Buning uchun avval “qora” so'zining semantikasiga ko'z tashlash maqsadga muvofiq. Qora sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko'rsatish maqsadida qo'llanganda, emotsional-ekspressivlikdan xoli bo'ladi, uning vazifasi rang to'g'risida xabar, ma'lumot berish bilangina cheklanadi. Nafaqat qora sifat leksemasi, balki barcha rang-tus sifatlari ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Masalan, qora qalam, oq daftar, moviy osmon, ko'k ruchka, qizil qon va hokazo. Bu birikmalarda biz hech qanday uslubiy ma'no xususiyatlariga duch kelmaymiz. Chunki bunday birikmalar uslubiy bo'yoqdorlikdan xoli hisoblanadi. Biroq bu sifat leksemali birikmalarning hokim bo'lagi o'zgarisa, sifat leksemalarning ma'no qirralari ham o'zgarishga yuz tutishi, yana ham aniqrog'i

uslubiy ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, qora o'tmish, oq ko'ngil, moviy havo, qizil dunyo kabi.

**"Qora"** leksemasi qadimgi turkiy tilda "belgi"(rang) tushunchasini ifodalagan. Ko'chma ma'nolarda kelib, 1) "baxti qora", "g'amgin"; 2) "og'ir"; 3) "yomon"; 4) "oddiy", "past navli", "qo'pol"; 5) "siyoh", "rang" tushunchalarini anglatgan. Eski o'zbek adabiy tili davriga kelib, **"qora"** leksemasining semantik strukturasi kengayish yuzaga keladi. "Qora" hozirgi o'zbek tilida o'n besh xil ma'noda qo'llanadi. Ellikka yaqin yasama va qo'shma leksemalarning shakllanishi uchun asos bo'lgan. Leksemaning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi **"shaxmat donalari", "o'qimagan", "savodsiz", "ko'ngilsiz, noxush", "noto'g'ri, aybdor"** semalari eski o'zbek adabiy tilida kuzatilmaydi. Bu esa leksema semantik strukturasi kengayib borishi bilan belgilanadi.

- **Yuklaridan qora dori chiqqanmish, - deb izoh berdi.**

**Bu gapdan so'ng Asadbekdan bir necha soniya sado chiqmadi...**

Bu keltirilgan misolda nazar solsak, "qora" so'zining pragmatikasi namoyon bo'lmoqda. "Qora dori" birikmasida aslida dorining rangini emas, balki butunlay boshqa ma'noni kuzatamiz. Aslida bunaqa dorining mavjud emasligini, aksincha, bu og'u, bu narkotik modda ekanligini, uning natijasida ko'p insonlarning hayoti barbod bo'lishini, uning ishlari "qora" ekanligini bilishimiz mumkin. Balki shuning uchun ham bu zahar "qora dori" deb atalar. Yana quyidagi misolda ham shuni ko'rish mumkin:

- **"Qoralar"** oldinda! **"Oq"** bechora qolib ketti...

- Ko'pam quvonaverma. Hali nima bo'lishini bilmaysanu...

Bu debatda ham "qora" va "oq" so'zlari rang ma'nosida emas, balki hamma uchun sevimli bo'lgan shaxmat o'yinining donachalari haqida bormoqda. Dastlab "qoralar oldinda" gapi orqali tinglovchi gap nima haqida borayotganligini tushuna olmaydi. Qaysi "qora", nima uchun shunaqa deyilmoqda buni tinglovchi anglab ololmaydi, ammo "oq bechora" esga olingach gap shaxmat haqida ketayotganligini bilib olish qiyin emas. Demak, bu yerda gap rang haqida emas, balki umuman boshqa narsa haqida ketmoqda. Bu ichki ma'noni anglash uchun esa bizga pragmatik tahlil yordam beradi.

**Oq** leksemasi badiiyatda beg'uborlik, musaffollik, tinchlik ramzi sifatida keng qo'llanadi. **Oq rang** deyarli barcha xalqlar madaniyatida soflik, rostgo'ylik, ezgulik timsoli sifatida ifodalanadi. O'zbek madaniyatida oq rang pokizalik, musaffollik, ezgulik ramzini anglatadi. Ba'zi lingvomadaniyatlarda oq rang qo'rqqoqlik timsoli sifatida keladi. Masalan, birinchi jahon urushida harbiy xizmatdan qochib ketgan fransuz askari yoki zobitiga qo'rqqoqlik ramzi sifatida oq patlar yuborilgan.

Oq leksemasining pragmatik ma'nosi esa diskursda namoyon bo'ladi. Uni quyidagi misollardan ham ko'rish mumkin:

- **Oq bilan qorani ajratolmag'an fuqaroning bir necha g'arazg'u mustabidlar kayfi yo'lida bir-birisining qonig'a tashna bo'lishlari va natijada istiqbolning vahm ko'rinishlari!**

**Shunday qayg'ular ichida bo'lib o'lturar ekan, Hasanali qo'lida bir maktub bilan hujraga kirdi:**

- **Toshkanddan emish, otangizdan bo'lsa kerak.**

Asardan olingan bu parchada ishlatilgan **"oq" va "qora"** rang ma'nosida emas, balki yaxshilik va yomonlik, odamlarning yaxshi va yomoni ma'nosida kelgan.

- **Choyingni qo'y, oqidan ellikta quy-chi,- deb buyurdi.**

**Bo'tqa bo'tqa bo'lib shu dargohga kelibdiki, Asadbek hali biron marta bu xonada o'tirmagan, o'zi "ellikta quy" deb so'ramagan edi. Shu sababli Bo'tqa amrni anglamaganday xojasiga qaradi.**

- **Nimaga angrayasan, oqidan ellikta quy deyaqman.**

Bunda ham "oq" leksemasi ishlatilgan va u rang ma'nosida emas, ichkilik turini anglatgan. Bu misollarda oq leksemasining o'z semantikasidan uzoqlashib, aynan pragmatikasi namoyon bo'lganini ko'rish mumkin.

Oq va qora leksemalaridan tashqari qizil so'zini ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Qizil rang deyarli barcha madaniyatlarda qondan oqadigan tiriklik va hayot ramzidir. Qizil leksemasining badiiy matnda pragmatik ifodalanishi:

**-Dehqonqul! Shuni o'ng qulog'ing bilan-da eshitib ol, chap qulog'ing bilan-da eshitib ol! Qizil rang yaxshilikka olib kelmaydi.**

**-Qizil bo'lsa bo'lar bu kishiga nima.**

**-Dehqonqul! Qizil yomon-da qizil yomon. Boisi qizil rang -qon rang!**

Bu matnda "qizil" deganda rang emas, Chor Rossiyasi askarlari, o'sha hukumat tushunilmoqda.

Yoki quyidagi misolda ham pragmatik tahlilga majburlik sezamiz:

- **Qizilga** o'tib kettingiz.
- Uzr.(Gazetadan)

Bu kontekstda ham so'zlovchi gapi orqali nimani nazarda tutayotganligini bilish biroz mushkul, agar unga e'tibor bersak, gap svetaforning qizil chirog'i haqida borayotganligini, haydovchi yo'l qoidasini buzganini bilib olish unchalik qiyin emas. Ranglarning ahamiyati hayotimizda qanchalik muhim ekanligini biz svetaforning qizil, sariq va yashil ranglaridan ham bilishimiz mumkin.

Rang bildiruvchi leksemalar ichida yashil, ko'k, sariq leksemalari ham o'ziga xos o'ringa ega.

- **Yashilni** shuncha kutamizmi? Katta davlatlarda nima qilishar ekan a?!
- Umri **yashilni** kutish bilan o'tib ketadi-da... (Gazetadan)

Bu misolda yashil svetaforning chirog'i ma'nosida kelib, pragmatik ma'no tashigan. Gapni pragmatik tahlil qilgandagina, uning ichki ma'nosi namoyon bo'ladi.

- Sariq bo'ldingmi?
- Ha. (Gazetadan)

Bu dialogda ham sariq leksemasi rang ma'nosida emas, kasallik ma'nosida ishlatilgan. Tabobatda bu kasallik belgisi sifatida bemorning rangi sarg'ayib ketishiga nisbatan nomlangan degan faraz mavjud.

Yoxud:

- **Ko'klamoyim ko'kingdan** ber bir chimdim...

Bu yerda ham ko'k leksemasi rang ma'nosidan tashqari, bahor fasli va uning ne'matlarini anglatadi. Bahor fasli ko'k rangida berilgan bo'lib, bahor ne'matlari ham, jumladan, yalpiz, jandiq, ismaloq kabi o'simliklar ko'k misolida beriladi.

- Bir pachka ko'ki bilan qo'lga tushibdi, ish chatoq.

Bu gapda ham ko'k o'z semasidan uzoqlashib, pragmatik mazmun ifodalagan.

O'zbek tilida rang so'zining o'ttiz bir ma'noda kelishi kitoblarda ko'rsatilgan. Birinchisi va eng mashxuri oq, qora, qizil, degan kabi **tusdan** tortib to yuz, aft, bashara ma'nosidagi **rangi**

**ro'ydir.** Birikmadagi ro'ying tushib qolishi natijasida hosil bo'lgan rangi siniq, rangi sovuq, rangi buzuq kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Rang tushunchasini ifoda qiluvchi so'zlar ko'p. Oltin kuz, feruza osmon, zumrad dala deganda sariq, ko'k, yashil ranglarni ko'zda tutamiz.

Inson farzandining aql-idroki o'sib, jamiyat rivojlangan sayin rangga doir qarashlar ham kengayib borgan. Natijada, odamlar olamni tushunishda mifologik tasavvurlarida (masalan, qizil rang orqali olov, quyosh yoki qon, hayot jo'shqinligini tushunganlar), urf-odatlarda (qora va ko'k ranglar motam belgisi), davlat va jamiyatning siyosiy hayotida, hatto tush ko'rganda (masalan, yashil rang baxt va omad ramzi) ham ma'no-mohiyatni bevosita rang bilan bezashgan.

Yaponiyada ranglarni o'rganuvchi maxsus ilmiy institut bor. Olamning ranginligi, ranglarning kishi kayfiyatiga ta'siri, turli ranglarning bir-biriga mos tushishi, ranglarga nisbatan inson didining shakllanish jarayonidan tortib, oddiygina galstukni to'g'ri tanlashgacha shu dargohda o'rganiladi. Yaponlar ranglarga juda e'tiborli. Bizning ham ulardan kam joyimiz yo'q. Yurtimiz ularning yurtidan o'n hissa ranginroq, she'riyatimiz esa o'n karra boyroqdir.

Har bir rang har bir millat madaniyatida o'ziga xos lingvokulturologik xususiyatga ega. Bu o'sha millatdagi aholining turmush tarzidan, madaniyatidan, jamiyatdagi ahvolidan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, yashil rang musulmon olamida o'ziga xos ramziy rangdir. Undan tashqari yangilanish, yosharish belgilarini ifodalaydi. Qizil rangi esa tanimizda oqib turgan qonni bildirib o'ziga tortuvchi, qiziqqonlikni, o'jarlikni ifodalaydi. Sariq rang ba'zan oltin ma'nosini ifodalasa, ba'zan kasallik ma'nosini bildiradi. Ranglar u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odati, marosimi, qadimiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Xalqlarning mifologik va diniy qarashlari ham ranglarda turlicha aks etadi. Bundan tashqari xalqlarning ijtimoiy hayoti, geografik muhiti ham ranglarga nisbatan munosabatning xilma-xilligiga olib keladi. Jumladan, dunyoning qutbi to'rt xil rangda tasavvur qilingan: sharq – yashil, janub – qizil, shimol – qora, g'arb – oq rangda. Shu asoda mintaqalarning har birida yashovchilar uchun o'sha rang muqaddas sanalgan.

Mentalitetimizda va madaniyatimizda rang bilan bog'liq ramziy obrazlar qo'llanilishining dastlabki ko'rinishlari, asosan, xalq og'zaki ijodida, xalq udumlari va urf-odatlarida o'z aksini topgan. Bizga ma'lumki, xalq og'zaki ijodi yozuv paydo bo'lmasdan ilgari yuzaga kelgan bo'lib, uming yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'analar bilan bog'liqdir. Xalq og'zaki ijodi asarlaridagi an'anaviy ma'no kasb qilgan ranglar ramzining tarixiy ildizlariga nazar tashlasak, ranglarning ramziy ma'no kasb eta borishini insoniyat ongining takomilida – ya'ni kishi qalbida sevinch va qayg'u, shodlig-u iztirob tuyg'ularining uyg'onishi bilan bog'liqligini ko'ramiz. Zero, Sh.Turdimov "Rango rang dunyo" maqolasida e'tirof etib o'tganiday, insonda his-tuyg'u uyg'otish jihatidan ranglar ko'proq tovushlarga o'xshaydi. Ular tasavvurni tabiat sirlari bilan boyitibgina qolmay, turfa his-kechinmalarni teran va ta'sirchan ifodalashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, ranglardagi bu xususiyatni ular orqali so'z san'atida qadimdan shakllangan an'anaviy ramziy ma'nolar misolida kuzatish mumkin.

Jumladan, o'zbek xalqining ma'nolar xazinasida ilgari surilayotgan fikr, g'oya rang bilan bog'liq obrazlarda tipiklashlashtirilgan bir qancha maqollar mavjud. Ulardagi rang bilan bog'liq ramziylikni vujudga keltiradigan ranglar, asosan, oq va qora leksemalaridir. Bu kontrast ranglar vositasida jamiyatdagi eng jirkanch, nafratga loyiq xususiyatlar, baxtsizlik, g'am, tuxmat, kasallik bilan birgalikda yaxshilik, tozarish, baxt, sog'liq, martabalilik kabilar ifodalanadi. Masalan "oqqa qora yo'q, qoraga chora yo'q" maqolidagi oq va qora leksemalari otlashib, ramziy

obraz darajasiga ko'tarilgan. Oq, ya'ni aybsiz odamning ramziy obrazi bo'lib, uni har qancha qoralashga urinmasinlar, baribir u oqibat natijada oq bo'lib chiqadi va oqligicha qoladi. Negaki, haqiqat egilishi, bukilishi mumkin, ammo sinmaydi. Qora, ya'ni ayb qilib qo'ygan odam o'zini har qancha oqlashga urinmasin, baribir u qoraligicha, aybdorligicha qoladi, uni butunlay oqlashning chorasi, imkoni yo'q. "Qora ko'ngil – yara ko'ngil" maqolida xalqimizning ichi qora, ya'ni niyati buzuq, dilgir, ko'ngli yomon odamlardan nafratlanishi, ularning asl basharalari ochib tashlanmog'i va qilmishlariga yarasha jazo tortishlari muqarrar ekanligi anglashiladi.

Bu o'rindagi "qora ko'ngil" ramziy obrazi nihoyatda qotib qolgan, o'zgarmas emas, sababi yara tuzalganidek, ya'ni o'limdan boshqasi yolg'on bo'lganidek, "qorayib" qolgan ko'ngil yana o'ziga xos choralar natijasida asl holiga kelishiga bu o'rinda umid tug'iladi. Chunki bu olamda onadan qora ko'ngil chaqaloqlar tug'ilmasligi barchaga birday ayon.

Ota-bobolarimiz kishilik jamiyatida yashar ekanlar, ular kimga qanday munosabatda bo'lish lozimligi yuzasidan ta'lim berar ekanlar, u yoki bu odamning tashqi ko'rinishiga, chiroyli va xunukligiga, basavlat, kelishgan yoki ko'rimsiz, nogironligiga qarab xulosa chiqarish, shunga ko'ra javob-muomala qilish kerak emasligini, aksincha har bir odamning aql-u zakovatiga, fazl-u kamoliga, ma'noli yoki yoqimli gap-so'ziga, qilgan va qilayotgan xayrli ishiga, jamiyatda qozongan hurmat-e'tiboriga qarab munosabatda bo'lish lozimligini uqtirganlar va shu ma'noda "Har yuzi oqning ko'ngli oq bo'lavermasa, har yuzi qoraning ko'ngli qora bo'lavermas", "Qora tovuq ham oq tuxum qiladi", "Qora bulutdan tiniq suv tomar", "Qora sigir ham oq sut beradi" kabi maqollarni yaratganlar. "Eri o'lib erga tekkan el to'rasi, eri bo'lib erga tekkan bet qorasi" maqolidagi bet qorasi ham erga, ham oilaga bo'lgan hiyonat, tabiatning go'zal mo'jizasi ayol sha'niga tushgan kechirilmas va o'chirilmas dog' ramzini ifodalab kelgan. Bu o'rinda "qoralik" elga to'ra bo'lmaslik, la'nat va qarg'ish ostida qolishlik, hatto eldan, yurtdan ajralish, yon atrofdagi insonlararo insoniy munosabatlarning uzilishi kabi bir qancha ko'ngilsizliklarni o'zida mujassamlashtirgan. An'anaviy ramziylikni ifodalayotgan bu tushuncha barchaga birday tanish bo'lib, turli-tuman rangda talqin topishi mumkin.

Oq va qora ranglardan tashqari ba'zi o'rinlarda sariq, qizil, ko'k ranglari ham ishlatiladiki, ular asl ma'nosida predmet belgisini anglatga, majoziy ma'noda o'ziga xos ramziy ma'nolar tashiydi. Masalan, "Ko'k bedanani ko'rsa, qari ot ham o'ynoqlaydi" maqoli asosan majoziy ma'no ifodalab, undagi "ko'k" sifatlovchisi yoshlik, go'zallik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, o'zbek xalq maqollaridagi ko'pgina ramziy obrazlarning asrlar davomida hayotiy tajribalar xulosasi sifatida an'anaviy ramziy ma'nolar kasb qilib kelgan ranglar bilan bog'liqdir.

Rang, eng avvalo, e'tiqodiy tushuncha emas, balki tabiiy hodisadir. Shu tabiiy hodisa xususiyatiga ko'ra insoniyat rangdan o'z ijtimoiy-g'oyaviy, e'tiqodiy maqsadlari yo'lida, birinchi navbatda, uning tabiiy xususiyatlarini o'zlashtirgani holda foydalangan. Ranglarga ramz vositasi sifatida, ranglarning qo'llanishiga esa an'anaviy munosabat shaklida yondashish boshlandi.

Ranglarning ramziy va lingvokulturologik xususiyatlari xalq og'zaki ijodining birgina maqollarida emas, balki xalq qo'shiqlarida hamda qo'shiq-o'yinlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, "Oq terakmi, ko'k terak", o'yini, "Qizil gul" sayillari shular jumlasidandir. O'yinlarning

kattagina qismi o'tmishda yaratilgan bo'lib, ularning kelib chiqishiga qadimgi ajdodlarimizning animistik va totemistik, fetishistik, turli magik tasavvur-tushunchalari, e'tiqodiy qarashlari asos bo'lgan. Bu esa o'yinlarning yo nomidan, yo ular tarkibida uchraydigan ayrim motivlaridan sezilib turadi. Aytaylik, bolalar o'rtasida keng tarqalgan "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini asosida ibtidoiy odamlarning oq va ko'k ranglar haqidagi mifologik qarashlari bilan bir qatorda, daraxtlar topinchiga daxldor totemistik tasavvur-tushunchalari yotadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ranglar o'ziga xos xazinaga o'xshaydiki uni qancha ichiga kirib borgan sari boyliklari, ajoyibotlari yuzaga qalqib chiqaveradi. Rang bildiruvchi leksemalarni lingvokulturologik, pragmatik jihatdan yanada ko'proq o'rganish, uning xususiyatlarini yoritib berish tilshunosligimiz oldida turgan yana bir dolzarb masaladir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Tohir Malik. Shaytanat. 4-qism. –Toshkent: Sharq, 2001.
- 2.Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar.—Toshkent: Sharq, 1992.
- 3.Tohir Malik. Shaytanat. 3-qism. –Toshkent: Sharq, 1997.
- 4.Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar.—Toshkent: Sharq, 1994.
- 5.Jahongirov G`. O'zbek bolalar folklori. Toshkent, 1975. 110-bet.
- 6.Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. Toshkent, 1998. 480-bet.

INNOVATIVE  
ACADEMY